

“BOLALAR ADABIYOTI” ISTILOHI TAHLILI**Moxidilxon Abdullayeva Dilshodbek qizi****ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti**
O‘zbek adabiyoti ta’limi kafedrası tayanch doktoranti
madilshodbekqizi1@gmail.com**Tel: +99897584288****<https://doi.org/10.5281/zenodo.13761765>**

Annotatsiya. Ushbu tezisda bolalar adabiyoti tushunchasining istiloh sifatida tahlilga tortiladi. Mavjud tavsiflar keltirilib, ularning kamchiliklari izohlanadi, bolalar adabiyoti fanda ma’lum chegarani bildiradimi yoki aksinchami degan savolga javob izlanadi. Bolalar adabiyoti namunalari deganda qanday xarakterdagi asarlarni tushunish kerakligi bo’yicha turli qarashlarga fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar. Bolalar adabiyoti, hayotiy syujet, qiziqarli syujet, xilma-xil obrazlar, yosh xususiyatlari.

Bolalar adabiyoti tushunchasining o‘zi turli adabiyotlarda turlicha ta’riflanadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligida ushbu atamaning ta’rifi o‘xshash bo‘lib, tushunchalar bir-birini to‘ldirib boradi. Xususan, Mamasoli Jumaboyev o‘zining “Bolalar adabiyoti va folklor” kitobida bolalar adabiyotiga shunday ta’rif beradi: “Bolalar adabiyoti so‘z san’ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni iymon-e’tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir”.¹

Yuqoridagi ta’rifning mag‘zini oladigan bo‘lsak, bolalar adabiyoti bolalarning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yorqin obrazlarga boy bo‘lishi, ulkan g‘oya va porloq ishlarga ilhomlantirishi kerak bo‘ladi. Asosiysi, mavzu qiziqarli, til sodda va tushunarli bo‘lishi ekan. Qolgan ta’riflarni kattalar adabiyoti haqida ham bimalol aytsa bo‘ladi.

Boshqa aksariyat manbalarda asosan mazkur qo‘llanmada keltirilgan ta’rifga tayanilgan. Farqli, yangi xususiyatlar ochib berilgan ta’riflar ham uchrab turadi, albatta. Ana shulardan biriga ko‘ra, “bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmuyi tom ma’noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi an’anaga aylangan. Bolalar adabiyoti tushunchasi avvalo, turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan so‘z san’atidir. U voqelikni aynan o‘n olti-o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asar namunalarni o‘zida mujassamlashtiradi”.² Ta’riflar orasida nisbatan mukammal bo‘lgan mazkur jumlaning davomida yana shunday deyiladi: “...o‘zbek bolalar adabiyoti dastavval, hodisa shaklida, so‘ngra bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallab, nihoyat, ularga ixtisoslashgan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Buning tarixiy-tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari, badiiy-uslubiy tamoyillari, ilmiy-nazariy

¹ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B.3.

² Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019, b6.

umumlashmasi esa “Bolalar adabiyoti” deb nomlangan mustaqil fan tarixida o‘z ifodasini topib kelmoqda.”³

Bolalar adabiyoti tushunchasiga fan sifatida yondashgan muallif uning bir qancha xususiyatlarini aniq sanab o‘tadi. Bularni yuqorida keltirib o‘tdik. Qiyosiy tahlil orqali bolalar adabiyoti tushunchasiga berilgan ta’riflarni tahlil qilishda davom etamiz: “Yer yuzida dastlabki ota-onaning birinchi farzandi dunyoga kelishi bilan bolalar adabiyoti ham maydonga kelishi inkor qilib bo‘lmas haqiqatdir. Chunki bolalar adabiyotining asosiy vazifasi o‘shib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash manfaatlariga qaratilgandir. Binobarin, bolalar adabiyoti namunasi yosh avlodni ilm-ma’rifat nuridan bahramand bo‘lishga chorlaydimi, kasb-hunar o‘rganishga chaqiradimi, eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladimi, bulardan qat’i nazar, uning bosh vazifasi farzandlarimizni ma’naviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir. Demak uning asosiy o‘ziga xosliklaridan biri uning nafaqat adabiy-estetik, balki ma’rifiy ahamiyat kasb etishi bilan ham belgilanadi.”⁴

Bolalar adabiyoti tushunchasiga juda ko‘p o‘rinlarda soddalik ta’rifi beriladi, ammo bu soddalik bolalar adabiyotining ahamiyatini tushirib yuboradimi? So‘nggi yillarda soddalik niqobi ostida bolalar adabiyotiga yengil-yelpi asarlar misol qilib keltirilayotgani, albatta, bolalarni saviya jihatdan bir necha pog‘ona pastga tushirishini unutmazlik kerak. Aslida o‘sha soddalik xususiyati so‘zlarning soddaligi va shaklning soddaligida aks etishi kerakki, bolalar bu asarlarni o‘qishda, yod olishda qiynalmasin. Ammo kichkintoylarda hech qachon va hech qachon mazmunan sodda, yengil-yelpi asarlarni taqdim qilmasligimiz lozim. Sababi “adabiyotning boshlanmasi va umumkitobxonlikning ostonasi hisoblanuvchi”⁵ bolalar adabiyoti o‘ziga singdira olmaydi, chunki u tabiatan o‘ta mazmundordir. Soddalik mazmun evaziga keladigan bo‘lsa, bunda bolalar adabiyoti umumkitobxonlikning, adabiyotning shunchaki quruq surati va o‘yinchoq ko‘rinishi bo‘lib qolaveradi. Aslida esa aksincha bo‘lishi kichkintoylar uchun yaratilgan asarlar ularni adabiyotga kirib kelishi, bu fanga qiziqishi va umuman kitobxon bir avlod bo‘lib yetishishida pillapoya vazifasini bajarib berishi lozim bo‘ladi. Shu jihatdan, shaklan kattalar uchun murakkab hisoblangan asarlarning ham tillarini soddalashtirish, ularning multserial shakllarini yaratish orqali bolalar uchun mag‘zi to‘q, mohiyatan teran asarlar taqdim qilish imkoniyatimiz bor. Shunda bolalar adabiyoti tushunchasi ma’lum chegaralar bilan cheklanib qolmasdan mohiyat teranlashuvini kasb etishi, bu esa murg‘ak qalb sohiblarining yanada zukko, oqil bo‘lib yetishishlarini ta’minlaydi. Aslida yosh xususiyatlari ham kundan kunda o‘zining nisbiy tushuncha ekanini isbotlamoqda, masalan 2020-yillarga qadar bolalar kitobxonligi yoshi 17 yoshgacha hisoblangan bo‘lsa, bugun 17 yoshli shaxsni bola deb atash biroz qiyin, sababi u o‘zidan katta yoshdagi insonlardan zamonaviy bilimlar borasida ancha aqlli, texnologik qobiliyatlari yuksak. Shunday ekan, bolalar adabiyotiga mumtoz adabiyot namunalarini, Navoiy asarlarini, nazariy ma’lumotlarni asta-sekinlik bilan sodda tarzda kiritish ancha samarali bo‘ladi. Ana shunda bolalar adabiyotini emas, bolalar uchun adabiyotni o‘qitish masalalari kun tartibiga ko‘tarilib, yangi metodlar, yangi tadqiqotlar ko‘pchilik uchun foydali ahamiyat kasb etadi. Qachongacha “Navoiy asarlarini tushunmaymiz” deb o‘zimizga chegara qo‘yamiz? Ertaga bolalar adabiy

³ Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019, b7.

⁴ Barakayev R. Istiqloq davri o‘zbek bolalar she’riyatining ba’zi o‘ziga xosliklari. Uluslararası Başarı Bilimler ve sanat dergisi. 2021, 2 (1), b28.

⁵ Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019, b4.

savodxonligi past bo'lmisligi uchun tamal tushunchalarni bugun yaratishimiz kerak. Nega matematika sohasiga aloqador bo'lmagan odam ham karra jadvalini yoddan biladi. Arifmetik amallarda hisoblay oladi. Adabiyotning ham o'z arifmetik amallari, o'z karra jadvali bo'lishi kerak va bu aynan bolalar adabiyoti orqali singdirilishi hamda hayot davomida insonga asqatadigan tushunchalardan tashkil topishi lozim.

“Bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarga qo'yiladigan talab sujetning qiziqarliligi, hayotiyliigi va xilma-xil obrazlarga boyligini taqozo etishi, bunday asarlar bolalarga estetik zavq berishi bilan bir qatorda, ularning tabiat hodisalari va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur anglashga, hayotiy hodisalarini his etishga o'rgatishi tahlilga tortiladi”.⁶ Keling, bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarga qo'yiladigan yuqorida sanalgan talablarni tahlil qilamiz.

1. Syujetning qiziqarliligi. Aksariyat mumtoz adabiyot namunalarida ham syujet tarang, o'ta qiziqarli bo'ladi. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan “Sher bilan durroj” hikoyatida ham voqealar rivoji juda ham qiziqarli kechadi. Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi “To'g'rilik bobi”ga ilova qilingan mazkur hikoyatning bolalarga moslangani, shaklan soddalashtirilib, mazmun g'oyat aniq tarzda saqlab qolingani adabiyot va bolalar adabiyoti aslida umumiy tushunchalar ekaniga yorqin isbot bo'la oladi.

2. Syujetning hayotiyliigi. Bolalar uchun yaratilgan asarlarda syujet fantastik ruhda bo'lishi ham mumkin, aslida. Bu yerda muallif aynan qanday hayotiylikni nazarda tutgani bizga mavhum ko'ringan bo'lsa-da, shuni ta'kidlashimiz kerakki, mazmunan ancha katta yuk tashuvchi asarlarning aksarida syujet hayotiy tasvirlanadi. Agar farazni inkor qilib, talabni reallikdan noreallikka, fantastikaga ko'chirganimizda ham fikrimiz o'zgarishsiz qoladi. Demoqchimizki, Navoiy asarlarida qanchadan qancha fantastik unsurlar uchraydi, ularning tili soddalashtirilsa, bolalar uchun qanchalik qiziq syujetlar hosil bo'lishini bir tasavvur qilib ko'ring-a.

3. Obrazlarning xilmaxilligi. Obrazlar xilmaxilligi ham bugun biz bolalar adabiyoti deb hisoblagan asarlargagina emas, barcha adabiyot namunalariga taalluqli. Shunday ekan, tili sodda ekanini ro'kach qilib, mazmunan bo'sh asarlarni bolalarga taqdim qilishdan, ularni bolalar adabiyoti namunalari deb atashdan chekinish, kichkintoylarga mazmunan yukli asarlar berishdan qo'rqmaslik, bu yo'lda adabiy jasorat ko'rsatish vaqti yetdi.

Vikipediya ochiq ensiklopediyasiga ko'ra, bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar: Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – u **o'zgaruvchan** hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning **harakatga boyligidir**. Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.⁷

Yuqoridagi istiloh izohlariga qo'shimcha ravishda ushbu ta'rifda bolalar adabiyotining ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi va tezkorlik, fantaziya va yumorga boylilik xarakterlarini ko'rish mumkin.

⁶ Ochilov N. Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti. Toshkent: “LESSON PRESS” nashriyoti. 2021 b 12.

⁷ Wikipedia https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_adabiyoti

Ochilov N. Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti. Toshkent: “LESSON PRESS” nashriyoti. 2021.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov o'zining quyidagi so'zlari bilan bolalar adabiyotining ahamiyati qanchalar yuqori ekanini ta'kidlagan edi: "Ayniqsa biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e'tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim", – degan edi I.A.Karimov.

References:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019.
3. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019.
4. Barakayev R. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining ba'zi o'ziga xosliklari. Uluslararası Başarı Bilimler ve sanat dergisi. 2021.
5. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Noshir, 2019.